

YANGI O'ZBEKISTON VA UCHINCHI RENESSANS

Haydarova Feruza Umurzoqovna

Samarqand viloyat Toyloq tuman- 2-sod kasb-hunar maktabi Tarix fani o'qituvchisi

ANNOTATSIYA Ushbu maqolada Yangi O'zbekiston va uchinchi renessans haqida so'z boradi. Shuningdek Yangi O'zbekistonning o'zgarayotgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotidagi yangiliklar, islohotlar va rivojlanishlarni tahlil qilinadi. Uchinchi renessans davri O'zbekistonining yuksak maqsadlarga yo'naltirilgan yangi renessans dasturi to'g'risida umumiy tushuncha beradi.

Kalit so'zlar: Yangi O'zbekiston, *rennesans, Yevropa uyg'onishi, birinchi, ikkinchi, uchinchi Renessans davrlari*, davlat va jamiyat, inson manfaati, taraqqiyot strategiyasi;

АННОТАЦИЯ В данной статье говорится о Новом Узбекистане и третьем Возрождении. Также анализируются новости, реформы и события в меняющейся политической, экономической, социальной и культурной жизни Нового Узбекистана. Третий период возрождения дает общее представление о новой программе возрождения Узбекистана, ориентированной на высокие цели.

Ключевые слова: Новый Узбекистан, ренессанс, европейский ренессанс, первый, второй, третий периоды Возрождения, государство и общество, человеческие интересы, стратегия развития;

ANNOTATION This article talks about New Uzbekistan and the third renaissance. Also, news, reforms and developments in the changing political, economic, social and cultural life of New Uzbekistan are analyzed. The third renaissance period provides a general understanding of the new renaissance program of Uzbekistan focused on high goals.

Key words: New Uzbekistan, renaissance, European renaissance, first, second, third Renaissance periods, state and society, human interest, development strategy;

O‘zbekiston xalqining ko‘p asrlik boy tarixiga nazar tashlar ekanmiz, unda taraqqiyot cho‘qqilarini zabit etishning mashaqqatli bosqichlarini ko‘rish mumkin. Bu bosqichlarda davlatchiligidan shakllanishi, jamiyatda ilm-u fan, san’at va madaniyatning yuksalishi, buyuk siymlarning o‘z ijodida erishgan yutuqlari jahon tamadduning rivojiga hissa qo‘shishdek iftixonli jarayonlar gavdalanadi. O‘zbekiston tarixining birinchi Renessansi - Somoniylar davriga to‘g‘ri kelib, ushbu davrda buyuk ajdodlarimizning yaratgan ilmiy-falsafiy asarlari va olamshumul kashfiyotlari islom sivilizatsiyasiga tamal toshi bo‘ldi. Ijtimoiy sohaning har tomonlama rivojlanishi, jamiyatdagi munosabatlarning muayyan tartib-tamoyillar asosida qurilishi, shaharu viloyatlarning iqtisodiy-madaniy rivojlanishi, ilmu ma’rifatning markazlashuvi singari muhim jarayonlar o‘rtalarda yurtimizda davlatchilikning o‘ziga xosligini belgilovchi tamoyillardir.

Ikkinci Renessans – Amir Temur va Temuriylar davriga to‘g‘ri kelib, nafaqat Movaraunnahr, balki butun Markaziy Osiyo o‘lkalari o‘z taraqqiyotining yangi pog‘onasiga ko‘tariladi. Amir Temurning hayotlik vaqtida davlat boshqaruvi haqida so‘zlovchi “Temur tuzuklari” nomli maxsus asar yozilgan. Asar ikki qismdan iborat bo‘lib, O‘rtalarda asrning bebahohi tarixiy manbasi hisoblanadi. Unda Temurning hayotiy voqealari bilan bog‘liq tarjimayi xoli, atoqli davlat arbobi va sarkardaning harbiy san’atga bo‘lgan nuqtayi nazari, davlat tuzilishi va boshqaruvi kabilar bayon qilingan. Bu davrda davlatchilik asoslari takomillashib, shaharsozlik va me’morchilik avj oldi, xalqaro savdo va diplomatik aloqalar jadallahdi. Shuningdek, bu davrda fan, madaniyat va san’at sohalarining rivojlanishi hamda tafakkur doirasining yuksalishi namoyon bo‘ladi.

O‘zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 29 yillik tantanalarida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining: “Xalqimizning ulug‘vor qudrati jo‘sh urgan hozirgi zamonda O‘zbekistonda yangi bir uyg‘onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda”, - degan so‘zi yangradi.

Tarixga nazar soladigan bo‘lsak insoniyat ko‘rgan barcha Renessanslarga — Yvropa, Islom, Markaziy Osiyodagi uyg‘onish davrlarining barchasiga birdekkos bo‘lgan xususiyat antropotsentrizmdir. Ularning barchasida fan, ta’lim va madaniyat

gumanistik g‘oyalarga tayanib, avvalambor, dunyoviy xarakterga, ratsional mazmunga ega bo‘lgan. Ilmiy izlanish, madaniyat va san’at ijodi markazida hazrati inson, uning hayoti va faoliyati, fikr va hissiyotlar, umid va istaklar, muammo va ziddiyatlar gavdalangan. Bundan xulosa shuki, Renessans inson ehtiyojlari, erkinliklari va huquqlarini ta’minlashdan boshlanadi.

Bejiz emaski, so‘nggi to‘rt yil mobaynida bu sohaga mamlakatimizda alohida e’tibor berilmoqda. Inson huquqlari bo‘yicha Milliy strategiya izchil amalga oshirilmoqda.

Darhaqiqat, shiddat bilan rivojlanayotgan hayotimizda ro‘y berayotgan yuksalish jarayonlari o‘zini barcha sohalarda namoyon etmoqda. Binobarin, mustaqillikka erishgan yillarimizning ilk davrida biz o‘zimizning milliy o‘zligimizni anglash, boy tarixiy-ma’naviy hamda ilmiy merosimizning asl mazmun-mohiyati mag‘zini chaqish va uni ro‘yobga chiqarishga intilgan bo‘lsak, endilikda xalqimiz jipslanib “milliy tiklanishdan – milliy yuksalish” g‘oyasini sobit qadamlik bilan amalga oshirishga kirishdi.

Jahon sivilizatsiyasining har bir bosqichida insoniyatni ma’naviy va axloqiy kamolotiga erishish masalasi dolzarb hisoblangan. Ma’naviy tahdidlar, axloqiy buzilishlar global miqyosda kuchayib borayotgan taraqqiyotning bugungi bosqichida ham insonlar ma’naviy immunitetini, axloqiy sifatlarini, ma’naviy taraqqiyotni rivojlantirishga va bunda ma’naviy merosimizdan samarali foydalanishga zarurat sezilmoqda. Bugungi kunda mamlakatimizning ijtimoiy-siyosiy hayotida muhim islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Uchinchi Renessans poydevorini yaratish va bunda ma’naviy taraqqiyot, ilmfanni rivojlantirish, inson qadrini ulug‘lash masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ma’naviy taraqqiyotni yuksaltirish bevosita ma’naviy merosimizni qadrlash va yoshlarda milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhini shakllantirishga qaratilgan targ‘ibot-tashviqot ishlarini samarali yo‘lga qo‘yish orqali amalga oshiriladigan ijtimoiy jarayonlardan hisoblanadi. Chunki ma’naviy taraqqiyotga intilish inson ma’naviy-axloqiy kamolotiga erishishning har qanday ijtimoiy makon va zamon uchun universal bo‘lgan mezonlari mavjud bo‘lib, ularni bugungi kun nuqtai nazaridan tahlil etish hamda amaliyotda foydalanishni yangi bosqichga ko‘tarish yuqoridaagi muammolar yechimida

muhim ahamiyat kasb etadi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Bugun biz intilayotgan Yangi O'zbekistonni, Uchinchi Renessans poydevorini buniyod etish – bu shunchaki orzu emas. Bu aniq strategik maqsad va umumxalq harakatiga aylanib borayotgan beqiyos amaliy jarayondir".

Kundan-kunga shiddat bilan rivojlanayotgan tarqqiyotning hozirgi zamon bosqichida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni e'zozlash, tarixiy merosni asrash va milliy an'analarni tiklash, qadrlash kabi masalalar bilan bog'liq muammolar butun dunyo afkor ommasining e'tibor markazida turibdi. Bugungi kunda inson ma'naviyati va axloqiy kamolotini yuksaltirish masalalariga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri yoshlarmizni sog'lom fikrli, sog'lom e'tiqodli, ma'rifatli va bilimli qilib tarbiyalashga qaratilgan. Bu borada 2016- yilning 12- avgustida qabul qilingan, 2016- yilning 24 avgustida Senat tomonidan ma'qullangan va 2016- yilning 14-sentyabridan kuchga kirgan "Yoshlarga oid dalat siyosati to'g'risida"gi, 2017- yil 7-fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishlari bo'yicha Harakatlar strategiyasi", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2020- yil 6- noyabrdagi PF-6108-son "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari hamda 2018- yil 12-maydagi PQ-3721-son "Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o'rganish va targ'ib qilish maqsadida yoshlar o'rtaida kitobxonlik tanlovlарini tashkil etish to'g'risida"gi qarorlarining ijrosi bo'yicha bir qator chora-tadbirlar rejasidishlab chiqilgan va amalga oshirilmoqda.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev tomonidan 2017- yil 12- yanvarda "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi Farmoyishi imzolandi. Bu esa xalqimizda, ayniqsa, yoshlarimiz orasida kitob mutolaasini, kitobga bo'lgan qiziqishni yanada kuchaytirishda muhim omil hisoblanadi. "O'qish-o'rganish, doimiy izlanish, yangilikka, taraqqiyotga intilib yashash har

birimizga doimo hamroh bo‘lishi kerak. Nega deganda, buyuk mutafakkir Yusuf Xos Hojib aytganidek: “Dunyoda ikki turli inson haqiqiy insonsanaladi: biri – o‘rgatuvchi, biri – o‘rganuvchi”, – deya ta’kidlagan edi Prezidentimiz.

Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va Uchinchi Renessans ostonasida ma’naviy taraqqiyotni yuksaltirishda o‘sib kelayotgan yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalamoq bugungi kunning ob’ektiv zaruratiga aylanib bormoqda.

Uchinchi Renessans g‘oyasining oraliq bosqich vazifalari aniqlanishi kerak. Masalan, 2030-yilda, 2040 — 2050-yillarda biz aholi jon boshiga taxminan qancha yalpi ichki mahsulot ishlab chiqaramiz, jahon reytingida taxminan qanday o‘rinlarga ko‘tarilamiz. Ta’lim, madaniyat, ilmfan sohalarida qanday ko‘rsatkichlarni, marralarni zabit etamiz. Ular bo‘yicha mo‘ljallar belgilanishi lozim. Shunda mazkur g‘oyaning safarbarlik ta’siri konkret va kuchli bo‘ladi. Ammo mo‘ljallar havoyi bo‘lmasligi, konkret raqamlardan tashkil topmasligi kerak. Yangi AKT, nanotexnologiyalar, biotexnologiyalar, sun’iy intellekt yaratish va shu kabi yo‘nalishlardagi vazifalar ham e’tibordan chetda qolmasligi zarur.

Har qanday buyuk rejalar, buyuk g‘oyalar inson ehtiyojlari, turmushi yaxshilanishi, erkinligi ortishi va ma’naviy kamoloti bilan bevosita bog‘lansagina, hayotiylik va reallik kasb etadi. Aks holda u havoyi orzu havasligicha qolib ketadi.

Xulosa qilib aytganda, so‘nggi besh yil davomida yoshlarni har tomonlama qo‘llabquvvatlash, ularni komil inson sifatida yetishi uchun zamin yaratildi. Bularning bari ma’naviyat va ma’rifatga qaratilgan chora tadbirlar ekani har tomonlama bo‘y ko‘rsatmoqda. Ma’naviyati, ma’rifati yuksak xalqni hech qanday kuch yenga olmasligidadir. Yoshlarga berilayotgan bu e’tiborlar esa o‘z mevasini bermoqda. Bunga yoshlarning xalqaro va respublika miqyosida erishayotgan yutuqlari yaqqol dalildir. Berilayotgan shuncha imkoniyatlardan foydalanmaslik esa jinoyat bilan tengdir. O‘zbekistonning yosh bir fuqarosi bo‘lib, Yangi O‘zbekistonni qurish va Uchinchi renessans qurishdeh bir davrda yashayotganimda faxrlanaman va butun O‘zbekiston yoshlarini bu ishda faol bo‘lishlariga chaqiraman. Chunki aynan bugungi

yoshlar ertangi kunimizning, Yangi O‘zbekistonning va Uchinchi Renessansning poydevorlaridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev SH.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. - Toshkent: «O‘zbekiston», 2021. -B.27.
2. Mirziyoev SH. M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. - Toshkent: «O‘zbekiston», 2021.
3. Mirziyoev SH. M. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo‘lini qat’iy davom ettiramiz / Yangi saylangan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalari qo‘shma majlisidagi nutqi // Yangi O‘zbekiston gazetasi, 2021 yil 7 noyabrь, 223-son, -B.2.
4. Yangi saylangan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoevning lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis avlatalari qo‘shma majlisidagi nutqi // https://uza.uz/oz/posts/yangi-ozbekiston-taraqqiyotstrategiyasi-asosida-demokratik-islohotlar-yolini-qatiy-davom-ettiramiz_318163
5. Mirziyoev SH. M. Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari. - Toshkent: «O‘zbekiston» IMIU, 2020. -B.403.
6. <https://lex.uz/uz/>
7. <https://www.gazeta.uz>